

ZAMONAVIY MEDIA SOHALARI KESIMIDA FAOLIYAT
YURITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Musurmonov Ilhom

TDSHU jurnalistika mutaxassisligi 1-kurs magistranti, Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998974623303; e-mail: musulmonovilhom681@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy mediadagi tarmoqlashuv hamda turli malum mutaxassisliklararo ichki ixtisoslashuvlar tahlil qilinadi. Sohaga kirib kelgan yangi kasblar, qarashlar, atama hamda tushunchalar o'rganiladi hamda ular yuzasidan fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *media, postmodern, modern, feodal, konkret, ixtisoslashuv, tarmoqlashuv, radio, televideniye.*

Abstract: *This article analyzes branching in modern media and internal specializations between different specialties. New professions, approaches, terms, and concepts entering the field are explored and reflected upon.*

Key words: *media, postmodern, modern, feudal, concrete, specialization, networking, radio, television.*

Аннотация: *В статье анализируются разветвления современных СМИ и внутренние специализации между различными специальностями. Исследуются и размышляются новые профессии, подходы, термины и концепции, вошедшие в эту сферу.*

Ключевые слова: *медиа, постмодерн, модерн, феодализм, конкретность, специализация, сетевое взаимодействие, радио, телевидение.*

20-asr tugab, 21-asr boshlangandan buyon har bir kasb va sohada izchillik borgan sari chuqurlashib va ildiz otib bormoqda. O'tgan asrda yaxlit kasb sifatida qaralgan ayrim kasblar yangi davrga kelib o'z ichida alohida guruhlariga bo'linib, yangidan-yangi jarayonlarni hosil qilmoqda. Aytaylik: bir vaqtlar feodal hisoblangan Yevropada yallig'langan va zararlangan tishni olib tashlash va bemor uchun xavfli hisoblangan tish kasalliklarini shu taqlid bartaraf etish bilan soch-soqol oladigan sartaroshlar shug'ullanishgan. Ular o'zlarining bu yanglig' kasblariga qo'shimcha ish sifatida emas, balki sartaroshlik ishining davomi, bir bo'lagi sifatida qarashgan. Shuning uchun ham hech kim ularning ustidan shikoyat qilmas va o'zlarining tish bilan bog'liq butun muammolariga yechim topa oladigan yagona insonlar toifasi deb bilishgan.[1] Keyinchalik vaqtlar o'tishi, insoniyat takomillashuvi, uning aqliy mehnatining ortishi va butun sohalarni qamrab olgan va amalga oshirilgan

modernizatsiyalashuv jarayoni natijasida esa alohida soha va tarmoqlarda konkretlashuv (ixtisoslashuv) ro'y berdi. Bu narsa fan tiliga "ixtisoslashuv" nomi bilan kirgan. Barcha sohalarni birdek qamrab olgan bu jarayonni (ixtisoslashuvni) jurnalistik faoliyatda ham ko'rishimiz mumkin. Aytaylik, bir vaqtlar jurnalist sifatida bir idora yoki ma'lum bir voqea-hodisa ro'y bergan joyga yuborilgan muxbir voqea joyidan lavha tayyorlashi (agar televediyeye bo'lsa), uni montaj qilib efir uchun tayyor shaklga keltirishi lozim bo'lgan. Bu texnik tomonlama bir misol, xolos. Kasbiy jihatdan esa mablag' tejalishi maqsadida shtatga olingan bitta jurnalist muxbir sifatida (xoh gazeta bo'lsin, xoh boshqa ommaviy axborot vositasi) masalan, bir safar Parlamentga yangi qonunchilikka kiritilayotgan me'yorlarni xalqqa tanitish maqsadida lavha yoki maqola tayyorlashga jo'natilgan bo'lsa, boshqa o'rinda ayni jurnalist yilning eng markaziy o'yinlaridan biri hisoblangan ikkita mashhur o'zbek futbol klublari: Paxtakor va Bunyodkor uchrashuvini yoritishga va maqola-lavha tayyorlash uchun yuborilgan. Bunga ko'pchilik biz uzoq yillar davomida yashab o'tgan totalitar tuzumning aybi sifatida qarab keladi. Ya'ni e'tibor beradigan bo'lsak bir paytlar faqat totalitar va mustabid tuzum hisoblangan SSSRning mustamlakalaridagina yoki o'zida hozirda shunday tuzumning shakli qoliplarini saqlab kelayotgan davlatlardagina jurnalistika alohida kasb sifatida universallashtirib o'qitilib kelinadi. Aynan shuning uchun ham jurnalist-universal shaxs va kasb hisoblangan. Boshqa tarafdin esa hamma voqea va hodisani boshqaruv tuzumidan kelib chiqib manipulyatsiya qilish va fikr kontroli natijasida xalqni ushlab turish maqsadida ham totalitar jamiyatlarda kasbga g'oyaviy ishlov berilgan. Uning uzoq yillar davomida bir mamlakatdagi universitetda "alohida universallashtirilib o'qitilib kelinganining" sababi aynan shunda.

Ya'ni e'tibor qilsak butun rivojlangan kollektiv G'arb yoki Amerikada jurnalistika ijtimoiy soha va alohida iqtidor talab qilgani uchun u sotsiologiyaning bir qismigina xolos, uni o'qitish va nazariyalashtirish kerak emas deb qaraladi. Aynan alohida iqtidor talab qilgani uchun ham unda universallashtirish emas, ixtisoslashuv bo'y ko'rsatgan. Ixtisoslashgan jurnalistik faoliyat- ommaviy axborot vositalarining istalgan bir turida to'liq va professional faoliyat yuritishdir. Bu umumiy qoida. Ammo u mazmunan va shaklan yana o'z ichida turli guruhlariga bo'linadi. Aytaylik: "Match Time" nomli jurnal mavjud va uni misol tariqasida olsak, umumiy ixtisoslashuv: sport jurnalistikasi; o'z ichida ichki ixtisoslashuv sportning futbol turi; jamoa ichki ixtisoslashuvi: sport jurnalistlari; professional fotograflar, professional sport sharhlovchilari va hokozo. Ko'pchilik shu bosqichda ularni bir-biridan ajratolmay chalkashtiradi. Garchi umumiy ixtisoslashuv sport jurnalistikasi bo'lsa-da, uni o'z ichida ixtisoslashuv va jamoa ichki ixtisoslashuvdan farqlash lozim. [2] Ya'ni

yuqoridagi nomi zikr etilgan "Match Time" jurnalini yana misol sifatida keltirsak: umumiy ixtisoslik sport jurnalistikasi bo'lsada jamoa ichki ixtisosligi farqli: ya'ni jamoadagi professional fotograflar va sport jurnalistlari yoki professional sport sharhlovchilaridagi jamoa ichki ixtisosligi garchi zimdan sezilmasada ammo farq qiladi. Oddiy tilda aytadigan va tushuntiradigan bo'lsak: jamoadagi fotografdan o'yinni sharhlash, yoki aksincha professional sharhlovchidan professional kadr yoki fotosurat talab qilinmaydi.

Ixtisoslashgan tahririyat yoki ommaviy axborot vositasini bilish va farqlash uchun obektiv quyish shart emas. Undagi xabar yoki lavhalarining aksariyat qismidan ham bilib olish mumkin bo'ladi. Ixtisoslashuv jurnalistikasining asosiy unsuriga aylanib bormoqda. Aynan shuning uchun ham bugun butun boshli insoniyat muammolari yoki butun boshli bir davlat yoki makonning turli va xilma-xil sohalarini qamrab olgan birorta ham ommaviy axborot vositasini uchratmaymiz. Bu bir jihatdan quvonarli hodisa, chunki o'tgan asrdagi hukmron tuzum o'z g'oyasini keng yoyish va bu g'oyaning puch va xatoligini odamlar anglab tushunib qolmasligi uchun matbuotni ana shunday universal qurolga aylantirib olgan edi. U ushbu katta lagerdagi butun boshli soha va tarmoqlarni qamrab olgan va shakl berilib o'z tomoniga muqobil keladigan qilinib tarqatar va monopulyatsiyaga yo'l ochilar edi. Bugungi zamonaviy media muhitida ixtisoslashuvni quyidagi asoslarda ajratamiz va farqlaymiz:

1) jurnalistning aniq yo'nalganligi (sport jurnalistikasi, teleradio jurnalistikasi, internet jurnalistikasi, bosma ommaviy axborot vositalari: gazeta-jurnal jurnalistikasi va hakoza)

2) Ommaviy axborot vositasining yo'nalganligi: (sport xabarlar: "Futbol TV", "Sport", "Match"; Xalqaro va mahalliy yangiliklar: "BBC", "Euronews", "NHK", "CNN", "Al-Jazeera"; ko'ngilochar: "Canal+", "Love2", "Meliy dom"; Kino va boshqa... : "Kinoteatr", "Navo", "Muztv", "Musicbass", "Rockstar".

Jurnalistikada muayyan bir sohaga (masalan, sport mavzusiga) ixtisoslashib ishlashning yutuq va kamchiliklari nimada? Ya'ni ixtisoslashib ishlaganda qanday yutuq va kamchiliklarga erishish mumkin?

Muayyan bir ommaviy axborot vositasining istalgan bir turida ixtisoslik, eng avvalo, kasbiy yuksalish nuqtai nazaridan professionallikni taqdim qiladi. Universal jurnalist sifatida ilgari hamma sohadan bir shingil qabilida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, endi muayyan bir ixtisoslik asosida ishlash jurnalistga shu sohaning insoniyatga ma'lum eng quyi nuqtalarigacha o'rganish va kirib borishga yo'l ochadi. Bu esa keyinchalik uning ushbu sohada hamma narsani biladigan kuchli mutaxassis bo'lib yetishishini ta'minlaydi. Bu kasbiy jihat. Boshqa jihatdan esa inson o'zi xohlagan

sohaga kirib kelishini ta'minlaydi. Ya'ni o'zi chin dildan istab ushbu sohaga kiradi. Aynan shuning uchun ham Yevropa yoki Amerikada jurnalistlar tayyorlaydigan alohida universitetlar mavjud emas. Biroq shunga qaramasdan barcha tarmoq va jabhalardagi eng kuchli jurnalistlar mazkur mamlakatlarda. Bularning asosiy sababi esa ixtisoslikdagi inson tanlovining erkinligi va uni hammaning birdek hurmat qilishidir. Aynan o'sha hurmat va fikrga ijobiy munosabat bildirish tuyg'usi mavjudligi uchun ham birorta bolakay fotograf yoki sharhlovchi bo'lishni xohlasa kattalar (asosan ularning ota-onalari) bu kasbning yomonligi, undan yaxshi pul topib bo'lmasligi haqida gapirishmaydi.[3] Balki bolaning fikri hurmat qilinadi va qo'llab quvvatlanadi. Aynan shu boisdan ham garchi kam daromadli jihati mavjud bo'lsada bu davlatlarda jurnalistika kasb sifatida kamayib yoki zavolga uchrab ketmaydi. Muayyan bir sohaga ixtisoslikda ham qolgan butun sohalarda kuzatilganidek yutuq va kamchiliklar mavjud bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F. Mo'minov, A. Nurmatov. Jahon jurnalistikasi tarixi. Toshkent:, Sharq. 2019.
2. X. Do'stmuhammad. Jurnalist bo'lmoqchimisiz?. Toshkent: O'qituvchi. 2006.
3. Audiovizual jurnalistikaning dolzarb muammolari\ maqolalar to'plami. Toshkent: Ilmiy-uslubiy markaz. 2008.